

4. Сообщение действительного члена Н.Н.Белявского: об исследованиях Аму-Дарьи от Петро-Александровска до Чарджуя (Чаржоу) // Известия Императорского Русского географического общества. 1886 // Туркестанский сборник. Том 405. – 1886. – С. 209-214.
5. Цинзерлинг В.В. Орошение на Амударье. – Москва: Издание Управления водного хозяйства Средней Азии, 1927. – 222 с.
6. ЎзМА, И-1-фонд, 34-рўйхат, 625-иш, 32-варақ.
7. ЎзМА, И-3-фонд, 1-рўйхат, 87-иш, 131, 144-варақлар.
8. Khakimova S.B. History of hydrographical researches on the Amu Darya in the XIXth century // Theoretical and Applied Science. – Philadelphia, 2020. – Issue 05 (85). – P. 927-934.
9. Khakimova S.B. The Amudarya expedition of 1874: goals, course and results // Virtual International Conference “International Conference on Research Innovations in Multidisciplinary Sciences. Scientise – 2021”. – New York, 2021. – P. 348-350.

QAROR TOPGAN HAQIQAT – TIKLANGAN QADR (XX asrning 80-yillarida qatag'on qilingan qashqadaryolik ayollar taqdiri)

Suyarov N.R.

QarDU tayanch doktoranti

N7suyarov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 80-yillarida mustabid Sovet hokimiyatining “Paxta ishi” qatag'onligi doirasida Qashqadaryo viloyatida tergovga tortilgan, sudlangan hamda qamoqqa tashlangan ayollari taqdiri yoritib beriladi. Qatag'on qurbonlari xotirasi, “Paxta ishi” qatag'onchiligi tufayli jabr ko'rgan ayollar taqdiri birinchi marta arxiv manbalari orqali yoritish maqsad qilingan.

Kalit so'z va iboralar: Sovet hokimiyati, qatag'onlik, “Paxta ishi”, tergov izolyatori, Kommunistik partiya, “qayta qurish”, turg'unlik, paxta yakko hokimligi

Аннотация: В данной статье описывается судьба женщин, находившихся под следствием, судом и заключенных в Кашкадарьинской области в рамках «Хлопкового дела» репрессий советской власти в 80-х годах XX века. Память о жертвах репрессий, судьбы женщин, пострадавших в результате репрессий «Хлопкового дела», впервые предполагается освещать через архивные источники.

Ключевые слова и фразы: Советская власть, репрессии, «Хлопковое дело», СИЗО, Коммунистическая партия, «реконструкция», спад, хлопковая диктатура

Annotation: This article describes the fate of women who were under investigation, trial and prisoners in the Kashkadarya region as part of the "Cotton Case" of the repressions of the

Soviet authorities in the 80s of the twentieth century. The memory of the victims of repressions, the fate of women who suffered as a result of the repressions of the "Cotton business", is for the first time supposed to be covered through archival sources.

Key words and phrases: *Soviet power, repression, "Cotton case", detention center, Communist Party, "reconstruction", recession, cotton dictatorship.*

Mustabid sovet hokimiyati hukmronlik qilgan XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmi O‘zbekiston tarixida o‘zining o‘ta murakabligi va ziddiyatliliigi bilan ajralib turadi. Ma‘muriy – buyruqbozlikka asoslangan Sovet davlati o‘z hukmronligi davrida ichki siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida zo‘ravonlik siyosatini amalga oshirib keldi. Mustamlakalarda har 10 yilliklarda amalga oshirilgan qatag‘onlarning oxirgi davri O‘zbekistonda XX asr 80 – yillarining ikkinchi yarmida “paxta ishi”, keyinroq “o‘zbeklar ishi” degan nom ostida tarixga kirdi.

Butun mustabid Sovet davlatida eng quyi bog‘indan tortib, to markazgacha bo‘lgan tizimda siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, ayniqsa, iqtisodiy hayotda nosog‘lom vaziyat vujudga kelgan edi. Ana shunday paytda markaz, uning eng yuqori organlari o‘zlarini nafaqat O‘zbekiston balki butun (mustamlakalarda) sho‘rolar davlatida vujudga kelgan iqtisodiy buxronni ya‘ni qo‘shib yozish, ko‘zbo‘yamachilik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi jinoyatlar urchigan vaziyat aybdorlarini jazolayotgan ko‘rsatish, ommaning asosiy diqqat markazini yuzaga kelgan muammolardan chalg‘itish, sovet mustamlakachiligini mustahkamlash masalasi turar edi. 1983-yilning dekabridan boshlab dastlab 12 kishidan iborat tergov guruhiga SSSR Bosh prokuraturasi alohida muhim ishlar bo‘yicha prokurori telman Gdlyan boshliq, Murmansk viloyati prokuraturasining oddiy xodimi nikolay ivanov o‘rinbosar bo‘lib O‘zbekistonga kelishadi.

U «Paxta ishi»ga rahbarlikni SSSR Bosh Prokurori o‘rinbosari, tergov bo‘limining boshlig‘i, hamyurti German Karakozov orqali qo‘lga kiritgan edi.

Hibsga ko‘plab nohaq aybdor qilingan, hibsga olingan kishilar orasida turli toifa vakillari – xalq xo‘jaligida faoliyatini boshlagan yosh kadrlardan tortib, tajribali, salohiyatli, mehnatkash va halol insonlar ham aksariyatni tashkil etar edi.

Sharqda, xususan O‘zbekistonda ayollarga nisbatan hurmat-ehtirom bo‘lakcha: ular muqaddasligi doim ta‘kidlanib kelinadigan haqiqatdir.

Aholining aksariyat qismi islom diniga e'tiqod qiladigan hamda «Jannat onalar oyog'i ostida [1: 228]. deb ayollar ulug'lanadigan O'zbekistonda gdiyanchi tergovchilar o'zlarining manfur maqsadlari yo'lida turli qarshiliklarga qaramay mutloqo aybsiz bo'lsa-da, hattoki ayollarni ham hibsga olishib, tergovga tortishashar, qamoqda saqlab jazoga tortadilar. Qashqadaryo viloyati ham yuzlab, minglab insonlar qatorida ayol kishilar ham hibsga olinib, turli ayblovlar qo'yiladi:

Ana shunday jabr ko'rgan ayollardan biri – Karomat Qudratovadir. U juda yoshligidan mehnatsevarligi va boshqaruvchanlik xususiyati evaziga 28 yoshidan boshlab, ya'ni 1983-yilning 31-oktyabridan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Kommunizm kolxozi raisi lavozimiga tayinlanadi. Ungacha ushbu jamoa xo'jaligida raislik lavozimida faoliyat yuritgan Eshmatov Rahmon boshqa xo'jalikka rahbar bo'lib ishga o'tadi.

U raislik qilgan xo'jalikda 1983-1985-yillar davomida samarali faoliyat yuritib, hurmatga sazovor bo'ladi – oddiy mehnatkashlar, dehqonlar va xo'jalikning barcha a'zolari orasida o'zining har tomonloma yetakchilik qobiliyatini ko'rsatadi.

Karomat Qudratova 1985-yilning kuzidan gdiyanchi tergovchilar tomonidan xo'jalikning sobiq raisi Eshmatov Rahmon ishi doirasida tergovga tortiladi. Dastlab, tergovchilar undan o'zidan yuqori lavozimdagi va xo'jalikda undan oldin faoliyat yuritgan rahbarlar ustidan ariza yozib berishini so'rashadi. Natija bo'lmagach, unga nisbatan ham tuhmatlarni uyushtirilib tergov harakatlari boshlanib ketadi.

Karomat Qudratova 1986-yil 16-iyul kuni sud qilinadi – dalillar orqali to'liq aybni isbotlamasa-da, 8 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Lekin hukmning bayonat qismida keltirilgan ya'ni qo'shib yozish, talon-tarojlik, qonubuzilishlaridan shaxsiy, moddiy-manaviy manfaatdor bo'lmaganligi, qo'yilgan ayblovlarni o'z ixtiyori bilan emas, boshqalarning noqonuniy topshiriqlarini bajarganligi hamda tazyiqi ostida yo'l qo'yganligi uchun hamda farzandi 3 yoshga to'lmaganligi uchun jazo muddati 3 yilga tushiriladi.

Shuningdek, ushbu jazo muddatini farzandi 3 yoshga to'lgach o'tash belgilab qo'yiladi. Shu bilan bir qatorda unga 3 yil-u 3 oy muddatda mansabdorlik lavozimlarida ishlash ta'qiqlanadi. Mol-mulki musodora qilinib, xo'jalik ixtiyoriga o'tkaziladi.

1990-yildan boshlab, "paxta ishi" doirasidagi oqlashlar qatorida K.Qudratova ishiga ham O'zbekiston Oliy sudi raisining birinchi o'rinbosari A.A.Polvonzoda tomonidan protest kiritiladi. 1991-yilning 22-aprelida adolat tiklanib, O'zbekiston Oliy Sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 1991-yil 24-apreldagi qaroriga asosan Karomat Qudratova harakatida jinoyat alomatlari bo'lmaganligi uchun tugatilgan [3: 45].

Gdlyanchilardan yana bir jabr ko'rgan o'zbek ayoli – Tamara Qurbonavadir.

U 1939-yil Qarshi tumani Beshkent shaharchasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. 8 nafar bolaning onasi bo'lgan. T.Qurbonova "2-3 darajalik onalik shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan. Nishon tumani 4-sonli "Turkmaniston" savxozida yashagan. 1985-yilda 3 oy davomida Nishon tumani "Sovet Rossiyasi" savxozida parrandachilik fermasida mudirlik qiladi.

T.Qurbonova Nishon tumani "Sovet Rossiyasi" savxozida parrandachilik fermasida tovuqboqar sifatida faoliyat yuritgan. Unga ferma mudiri, 1953-yilda Nishon tumanida tug'ilgan Tilovmurod Jabborov bilan til biriktirib, savxoz direktori Xoshim Soliyevning topshirig'iga asosan davlat mulkini talon-taroj etish, ko'zbo'yamachilik qilish (ya'ni xo'roz va o'rdaklarni sotib, o'rniga tovuq sotib olib kelib qo'yish) da ayblanadi [4: 42].

1984-yilning 22-noyabridan Qashqadaryo viloyati Sudida sud qaroriga binoan tilxat asosida ochiqda saqlanadi.

U 1981-yilning 5-yanvaridan 1982-yil 15-martiga qadar parrandachilik fermasida tovuqboqar bo'lib ishlab yurgan kezlarda davlat mulkini o'zlashtirish aybi bilan qamoqqa olinadi. Gdlyanchilar tomonidan tergovning bizga ma'lum bo'lgan usullaridan foydalangan holda so'roq qilingan. Qashqadaryo viloyat Sudining 1985-yil 31-maydagi hukmi bilan 2 yil-u 6 oy muddatga ozodlikdan

maxrum etiladi. Oradan bir yil o'tib, 1986-yilning 26-aprelida amnistiya farmoniga binoan jazodan ozod etilgan. 1991-yilning 18-martida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo'yicha Sudlov Kollegiyasining ajrimi bilan jinoyat ishi harakatdan yotqizilgan [2: 128].

Xalilulin Faniya Ziyayevna 1957-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. Millati tatar. Bahoriston (hozirgi Mirishkor) tumanining 22-savxozida traktorchi bo'lib ishlagan. Shu savxoz markazida 4 nafar farzandi bilan birgalikda istiqomat qilgan.

Sud hujjatlarida keltirilishicha [5: 232], 1982-yilda F.Xalilulin 22-savxozning 1-bo'limida boshliq lavozimida faoliyat yuritgan davrida savxoz direktori Rafael Ilyosovning topshiriqlariga asosan o'zi rahbarlik qilgan savxozning hisobiga 100 tonna paxtani "Bahoriston" paxta qabul qilish punkti 2-3-zona klassifikatori Samad Ravshanov orqali qo'shib yozganligi bo'yicha tergov olib boriladi. Ushbu ish munosabati bilan 34 ming 23 so'm pullarni Samad Ravshanovga savxoz bosh buxgalteri R.Toshpo'latov, savxoz kassiri G'ulom Qodirov, 1-bo'lim buxgalteri Jabborovlar orqali olib borib berilganligi aniqlanadi. F.Xalilulin va shu ish bo'yicha sudlanganlarning aksariyati ushbu qonunbuzilishlar ortidan kelgan pullardan manfaatdor bo'lmagan edi. 1986-yilning 15-oktyabrdagi Qashqadaryo viloyati Sudi hukmiga ko'ra, F.Xalilulin Bahoriston tumanining 22-savxozidagi qonunbuzlislarda bevosita ishtirokchisi bo'lsada, unga nisbatan jazo uning yoshligi, tajribasizligi, tuman partiya qo'mitasining sobiq rahbarlari va sobiq savxoz direktorlarining noqonuniy topshiriqlarini bajarganligi, ushbu harakatlar natijasida hech qanday moddiy yoki ma'naviy manfaat ko'rmaganligi hisobga olinib nisbatan yengilroq jazo - 2 yil jamoat ishlariga majburiy mehnatga jalb etiladi. Aslida F.Xalilulin ham vaziyat qurboni bo'lganligi, boshqalarning topshirig'ini bosim ostida bajarganligi anqilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 1991-yil 4-yanvardagi qaroriga muvofiq Faniya Xalilunning harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi uchun tugatilgan [2: 241].

“Paxta ishi” doirasida ayollarni hibsga olish, jazoga tortish ishlari toboro tubanlashib bordi. Gdlyanchi tergovchilarning turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan kasb egalarini ham o‘z domiga torta boshladilar.

Jumladan, Kitob tumani kuzgi-bahorgi kiyimlar uchun mo‘ljallangan tikuvchilik fabrikasida usta-tikuvchi lavozimida faoliyat yuritib kelgan Umriyayeva Go‘zal Ismoilovna ham 1980-yillardagi katta miqyosdagi tergov jarayonlariga tortildi – qatog‘onchilik jabriga duchor bo‘ldi.

Umriyayeva Go‘zal Ismoilovna 1935-yilda Mordova ASSR Rezayevka tumanida tug‘ilgan. “Paxta ishi” doirasida Kommunistik partiya safidan chiqariladi. Tergovga tortilgunga qadar 1979-1985 yillarda Kitob tumani kuzgi-bahorgi kiyimlar uchun mo‘ljallangan tikuvchilik fabrikasida katta usta ya’ni boshliq vazifasida faoliyat yuritayotgan edi.

Umriyayeva Go‘zal nomi bilan ochilgan jinoyat ishi hujjatlar to‘plamida ma’lum bo‘ladiki, tikuvchilik kombinatiga qarashli Kitob tumani K.Marks nomli jamoa xo‘jaligi hududida joylashgan Paxta titish sexida brigada boshlig‘i Z.Aliqulova, xodimlar R.Xolova, K.Eshquvvatova, A.Sharipova va N.Rahmonovalar tergovga tortilgan hamda aybi isbotlanmaganligi, ushbu tashkillashtirilgan qonunbuzlislardan bevosita manfaatdor bo‘lmaganliklari uchun javobgarlikka tortilmaganlar.

G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi sobiq direktori Parda Xudoyberdiyev, shu zavod 2-zona klassifikatori O.Najimov bilan o‘zaro kelishib, Nishon tumanining bir nechta savxoz direktorlaridan paxta o‘rnida pul olishda ayblanadi.

Sud ajrim hujjatlariga ko‘ra, G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev va boshqalar til biriktirib qilgan qonunbuzilishlar harakatlarini viloyat partiya qo‘mitasidan berilgan noqonuniy topshiriqlar tufayli bajarganligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, u sexga rahbarlik qilgan 1982-yilda tikish planini 103 % ga bajargan edi. U mehnatsevarligi va talabchan rahbar bo'lganligi uchun 1981-yilda "Mehnat belgisi", 1984-yilda "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlangan edi.

Qashqadaro viloyat Sudida 1986-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan Sudning qaroriga muvofiq 5 yilga ozodlikdan maxrum qilish jazosiga hukm qilinib va 3 yil davomida rahbar lavozimida faoliyat yuritish taqiqlab qo'yiladi.

Suddan so'ng G.Umriyayeva o'sha paytda Kompartiyaning Qashqadaryo viloyati qo'mitasi birinchi kotibi N.Turopovga xat yo'llaydi. O'z xatida G.Umriyayeva Nishon Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev tomonidan ko'rsatma berilgan hamda o'zini ayblashlariga sabab sifatida keltirilgan omillarini ya'ni tuman va viloyat partiya rahbarlarining faoliyati bo'yicha sudga tushuntirish berishni so'raydi. N.Turopov esa ushbu murojaatni viloyat sudiga yo'naltiradi.

Qiynoqlar va tazyiqlar uning ishi doirasida hibsga olinganlarning tinkamadorini quritadi. Jumladan, Kitob tumani aholiga maishiy xizmat ko'rsatish boshqarmasi bosh injeneri Tura Turopov hamda injener Mannon Rahmonovlarning irodasi bukilib, gdiyanchilar tomonidan tayyorlangan arizaga imzo qo'yib berishga majbur bo'ladi.

Lekin, G.Umriyayeva qa'tiy kurashadi – o'zining davlat mulkini o'zlashtirilmaganligini, vaziyat qurboni bo'lganligini ya'ni Paxta tozalash zavodi rahbari Parda Xudoyberdiyev va tuman, viloyat partiya qo'mitasining topshirig'i bilan bajarganligini isbotlashga juda ko'p harakat qiladi. Unga advokatlik qilgan X.Maxmasobirov O'zbekiston Oliy Sudiga Qashqadaro viloyat Sudida 1986-yil 10-iyun kun chiqarilgan qaror ustidan 16955-raqamli order bilan Kassatsiya shikoyati bilan murojaat qiladi.

Shu munosabat bilan G.Umriyayeva ishi 1987-yilning 8-yanvar kuni O'zbekiston Oliy Sudi Jinoyat ishlar bo'yicha Sudlov kollegiyasida kassatsiya tartibida ko'rib chiqiladi. Ushbu sud qarori bilan G.Umriyayeva amnistiya aktiga tushib sud zalidan ozod qilinadi. Hukumat qarori bilan 1990-yilda "Paxta ishi"

doirasida qamalganlarning ishini qaytatdan ko'rib sud jarayonida O'zbekiston Oliy Sudi raisi o'rinbosarori A.A.Polvonzodaning protestiga ko'ra, G.Umriyayevaning ishi ham ko'rib chiqiladi. 1991-yilning 5-iyul kuni O'zbekiston Oliy sudi Prezidiumi qarori bilan G.Umriyayevaning harakatlaridan jinoyat alomatlari bo'lmaganligi uchun jinoyat ishi yotqiziladi [2: 195].

Gdlyanchilar vakillari O'zbekistonning har bir viloyatida avval rejalashtirib, keyin xohlagan kishini – xohlagan paytlarida hibsga olib, bo'yinga oldirishga erishar edilar.

Ana shunday kishilar – ayollardan biri Yakkabog' tumani Paxta tozalash zavodida bosh buxgalter lavozimida faoliyat yuritgan Peripelesina Zoya Trentovna edi. 1928-yilda Altay burchagi viloyati, Karasuk tumani Kalachda qishlog'ida tug'ilgan. Millati ukrain. Yakkabog' shahri Oxunboboyev ko'chasi 8-uyda 3 nafar farzandi bilan birgalikda istiqomat qilgan.

Butun sobiq sho'rolar davlatida yuz berayotgan iqtisodiy buxronga g'ayrioddiy choralar – aldash, qo'shib yozish, byurokratik hisobotbozlik kabi illatlar Qashqadaryo viloyatini, undagi har bir tuman qatori Yakkabog' tumanini ham, albatta, chetlab o'tmaydi. Bunga sabab yarim asrdan oshiq vaqt davomida Moskvada joylashgan markaz tomonidan SSSR tarkibidagi mustamlaka bo'lgan hududlarga nisbatan o'tkazgan notog'ri iqtisodiy, ijtimoiy siyosat edi. 1980-yillar yuqoridagi omillar – aniq-tiniq o'zining “mahsuli”ni berib, “yolg'onlar mamlakati” a'zolari uchun yangi bir yolg'onni O'zbekiston xalqiga qilingan tuhmatlar, gdlyanchi tergovchilarning muttahamlklari orqali ko'rsatilayotgan edi.

Ana shu yolg'onning qurbonlaridan biri – dastlab, Yakkabog' paxta zavodida oddiy ishchi, bo'lim boshlig'i, keyinchalik bosh buxgalter lavozimlarida faoliyat yuritgan Z.Peripelesina edi. U o'z ishiga bo'lgan muhabbati va samarali mehnatlari evaziga “Mehnat shuhrati” va “Mehnat faxriysi” unvon – medallari bilan taqdirlangan edi.

Z.Peripelesina ustidan Yakkabog‘ paxta tozalash zavodi sobiq direktori M.Avlayev, Yakkabog‘ tuman partiya qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi Sami Boqiyevlar ishi doirasida tekshirish va tergov jarayonlari boshlanib ketadi.

Gdlyanchi tergovchilar tomonidan 1985-yilning 7-10-sentyabr kunlari Z.Peripelesinaga qarshi tuzilgan ayblash fikriga ko‘ra, Yakkabog‘ paxta tozalash zavodi qoshidagi paxta qabul qilish punktining hamda Yakkabog‘ tumanidagi ba’zi jamoa xo‘jaliklari, xususan, sobiq “Kalilin”, “Engels”, ”Pravda”, “Massiv” kabi jamoa xo‘jaliklarining paxta tayyorlash punktlarining sobiq mansabdor va moddiy javobgar xodimlaridan: Yakkabog‘ PTZ bosh iqtisodchisi Sayyora Karimova, 2 zona klassifikatorlari Zamon Aliqulov, Razzoq Berdiyev kabi 20 kishidan iborat guruh tergov jarayonlariga jalb qilinadi.

Xususan, Yakkabog‘ tumani sobiq “Engels” jamoa xo‘jaligi paxta qabul qilish punkti bilan 804 tonna paxta mahsulotsiz kvitansiylar rasmiylashtirib, xo‘jalikka yetkazilgan 154140 rubl miqdoridagi zarar yetkazilishda bevosita Z.Peripelesina ham ishtirok etgan, deb ayblashadi. Shu va shunga o‘xshash bir nechta ayblovlar bilan 1986 yilning 10 sentyabr kuni Qashqadaryo viloyat Sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining hukmi bilan Z.Peripelesina jami 11 yil ozodlikdan mahrum qilinadi, ushbu jazoni yengilini og‘irrog‘i bilan qoplash yo‘li bilan uzil-kesil 5 yil ozodlikdan mahrum qilinadi. Jazoni o‘tab bo‘lgandan so‘ng 2 yil davomida bosh buxgalterlik lavozimida faoliyat yuritish ta’qiqlanadi. Mol mulki musadoro qilinib, belgilangan 5 yillik jazo – umumiy mehnat-axloq tuzatish koloniyasida o‘tash belgilab qo‘yiladi.

Ushbu ish 1987-yilning 10-fevral kuni O‘zbekiston Oliy sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining sudlov majlisida kassatsiya tartibida ko‘rib chiqiladi. Lekin, hukm o‘zgarishsiz qoladi.

1989-yilning 11-avgust kuni Qashqadaryo viloyati Sudi hukmiga ko‘ra, amnistiya farmoniga binoan jazodan ozod etiladi. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 1991-yilning 7-

iyundagi qaroriga binoan Z.Peripelesinaning harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lmaganli uchun jinoyat ishi yotqiziladi.

Z.Peripelesinadan tashqari Yakkabog' paxta tozalash zavodi sobiq direktori M.Avlayev ishi doirasida yana bir ayol kishi – Sayyora Karimova ham tergovga olinadi. U 1982-84-yillarda Yakkabog' paxta tozalash zavodida bosh iqtisodchi sifatida “mansab mavqeini suistemol qilish, M.Avlayev va boshqalar bilan til biriktirib, hujjatlarni soxtalashtirgan holda davlat pulini talon-taroj qilgan”likda ayblangan edi.

Z.Peripelesina 1989-yilning 11-avgust kuni Qashqadaryo viloyat sudining hukmiga bilan, uning harakatlari jinoyat alomatlari bo'lmaganligi sababli jinoyat ishi to'xtatiladi. U O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 1991-yilning 7- iyundagi qaroriga binoan to'liq oqlanadi [3: 196].

Saida Jumayeva 1952-yilda Qarshi tumanida tug'ilgan. U bir necha yillar davomida Nishon tumani eski Ibn Sino nomidagi 8-savxozda ishchi, Tallimarjon tumani sobiq “Kommunist” nomli 2-savxozda brigadir lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, u savxozning Imomnazar Qurbonov boshliq bo'limda buxgalter bo'lib ham ishlagan edi. Talimarjon tumani “Kommunist” nomli 2-savxoz sobiq direktori M.Sharopov ishi doirasida gdlyanchi tergovchilar tomonidan tazyiq o'tkazilgan va shu ish doirasida sud qilinadi. Unga savxoz direktori Mars Sharopov va bosh buxgalter B.Xidirovlar bilan o'zaro til biriktirib, noma'lum shaxslar nomiga soxta ish hujjatlari, pul to'lov varaqasini tuzish va imzolarni qalbakilashtirib katta miqdorda davlat mulkini o'zlashtirish aybi bilan gumondor sifatida sudlashadi. Lekin, Saida Jumayeva va yuqorida nomi zikr etilganlar ushbu qonunbuzilishlarni o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida o'zlashtirgan emasdilar. Bu tergov jarayonida o'z isbotini topadi va 1984-yil 23-iyul kuni Qashqadaryo viloyat sudida bo'lib o'tgan majlisda ham aytib o'tiladi.

Saida Jumayeva ham o‘z navbatida quyilgan ayblovlarda qo‘yilgan qilmishlarni o‘z ixtiyori bilan emas, o‘zidan yuqori bo‘lgan rahbarlarning bosimi ostida bajarganligi haqida ko‘rsatmalar beradi.

Shunga qaramay, 1984 yil 23 iyul kuni Qashqadaryo viloyat sudining hukmiga ko‘ra, Jumayeva Saida aybdor deb topilib, uzil-kesil 3 yil ozodlikdan maxrum etish chorasi, shu muddatda umumiy mehnat-axloq tuzatish koloniyasida o‘tash belgilanadi hamda hukmning bayon qismida keltirilgan tarkibni ya‘ni Saida Jumayeva ushbu jinoyatlarni o‘z ixtiyori bilan emas, o‘zidan yuqori bo‘lgan rahbarlarning bosimi ostida bajarganligi, ushbu harakatlardan moddiy-ma‘naviy manfaat ko‘rmaganligi sababli yuqoridagi 3 yil sinov muddati etib tayinlanib, ushbu Qarshi tumani eski “Lelinizm” savxozida o‘tash belgilab qo‘yiladi.

1991-yilning 24-mayida Mars Sharopov va boshqalar ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi o‘rinbosari A.A.Polvonzodaning protestiga muvofiq 1991-yilning 16-dekabrda Oliy Sud jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining majlisi bo‘lib o‘tadi. Va Saida Jumayevaga nisbatan avval qabul qilingan qarorlar bekor qilinib, uning harakatalarida jinoyat alomatlari bo‘lmaganli sababli harakatdan to‘xtatiladi.

Gdlyanchilarning asosiy tergov sistemasi A.Vishinivskiy [10: 1-2] nazariyasiga asoslangan bo‘lib, Qashqadaryoda hibsga olingan, tergovga tortilgan, qamoqqa olingan minglab kishilar qatori, hatto ayollarni tergov qilishda ham ushbu usuldan keng foydalanishadi.

O‘zbek xalqida azal-azaldan milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo‘lib, kishilar qalbida ezgulik barq urgan xalq sifatida hamma zamonlarda e‘tirof etib kelingan. Ayniqsa, oila muqaddasli – uning takrorlanmas qadriyat sifatida e‘zozlab kelingan edi. Ana shu oila muqaddasligi asosida – ayol turadi. Gdlyanchilar tomonidan o‘zbek xalqiga qilingan bu xunrezliklar fonida bu takrorlanmas qadriyatlar ham toptaldi. Ular ayol-ona sifatida avvalo, o‘z oilasi, jamoasi oldida katta miqyosdagi qatog‘on siyosati tufayli bevosita aybdor bo‘lmasa-da, birinchidan sha‘ni, qadr-qimmatini toptaldi. Ikkinchidan esa, manfur

gdlyanchilar tomonidan o‘zbek ayollari o‘rtasida ham qo‘shib yozishlar va jinoyatchilar borligi butun sho‘rolar davlatida ko‘rsatishib millatning g‘ururi, qadri bilan o‘ynashgan edilar.

Gdlyanchilarning bu kabi mexanizmi zo‘rovonlik, xalqning asl qadriyatlarini nazar-pisandiga ilmaslik – insoniyatning nafratiga loyiq tizimi orqali butun sobiq sovet davlatidagi ularga hamtovoq hisoblangan gazetalar orqali salbiy targ‘ibotni kuchaytirish orqali olib borar edilar.

Gdlyanchilar vaqt o‘tishi bilan o‘zbek xalqining oila muqaddasligi, oilaparvarligini ongli ravishda bilgani holda ayblanuvchilarning tergov jarayonida nafaqat o‘zlarining taqdiri va balki, qarindosh-urug‘larining taqdiri haqida qayg‘urishga majbur qilishadi. Bularni ayniqsa, ayollarni tergov qilishda ko‘rinadi.

Bu o‘zbek xalqiga mansub fojيانing bir bo‘lagi edi, xolos. Ba‘zan bolalarni otalari yotgan kameraning yonidagi kameraga olib kelishar, ba‘zan esa aksincha qilishib bir-birlarining iztiroblariga sherik qilishardi. Ayblanuvchilar o‘z “qilmishlari”ni bo‘yniga olaverishmasa, ularning yaqinlari (ularning orasida xotin-qizlar ham ancha-muncha topilar edi)ning qamoqqa olinganligi tog‘risida rasmlar yoki videotasvirlarni ko‘rsatishar, turma yo‘lagida tasodifan yuzlashtirishlar, tezroq ayblarini tan olishmasa, yanada ko‘proq qarindoshlari hatto xotin-qizlari orqali bosim qilishardi – ayblanuvchilarning turmush o‘rtoq(ayoli)lari va qizlarini zo‘rlash, nomusini toptash bilan tahdid qilishardi. G‘urur nomusi himoyasi o‘limdanda afzal bo‘lgan o‘zbek xalqi har qanday qiynoqqa, ta‘ziyqlarga chidashi mumkin, lekin ayoli va qizining xo‘rlanishiga emas. Ana shunday paytda haqiqat va adolat, dunyo qonuniyatlari chekinishga majbur bo‘lar, ayblanuvchi hisoblanmish kishilar gdlyanchilarning har qanday shartiga rozi bo‘lar edi.

Yuqoridagi omillar gdlyanchilarning naqadar tuban yo‘llar bilan o‘z maqsadlari erishganini bildiradi. Bu maqsadlar boylik orttirish, markazda turgan qarama-qarshiliklarning manfaatiga xizmat qiladigan dalillarni to‘plash hamda tarixiy tarkib topgan alamzadalik ruhi yo‘lidagi xizmatlar edi. Bu harakatlar bag‘rikeng, oilaparvar o‘zbek xalqiga qilingan tuxmat va buxtonlar bilan

birgalikda kechdi. Nafaqat butun sobiq mustabid sho‘rolar davlatida balki butun dunyoda o‘zbek xalqiga nisbatan noto‘g‘ri fikrlar paydo bo‘la boshlashiga sabab bo‘lgan edi. Xolbuki, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko‘chirib keltirilgan o‘n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik va g‘amxo‘rlik namunalari ko‘rsatdi. Jang bo‘layotgan hududlardan ko‘chirilgan bir million shaxs boshpana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta‘minlandi. Minglab yetim bolalarni o‘zbek oilalari o‘z qaramog‘iga oldilar, farzandlaridan kam ko‘rmay tarbiyaladilar. O‘zbek xalqi jangga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamagan edi [5: 1-2].

Gdlyanchilarning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘onning, xo‘rliklarning yana bir asl sababi bu, albatta, o‘zbek xalqining bir yarim asrga yaqin davr ichida mustamlakchilik domiga tortilgani, va bu asnosida, asl haq-huquqlari paymon etilganligida edi. Mustamlakachilik esa – bu og‘ir hukm. O‘sha yillarning o‘z yo‘rig‘i – inkor etib bo‘lmaydigan qonuniyatlari mavjud edi. O‘sha qonuniyatlar adolatsizlikka qarshi bosh ko‘tarish, dadil gapirish, insoniy haq-huquq, qarshilik ko‘rsatish kabi faoliyatlarni to‘liq inkor etardi. Shu ma’noda yaqin tariximizning eng og‘ir murakkab davri bo‘lgan, sobiq imperiyaning jon talvasasiga chiqqan kezlarda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning Qashqadaryo viloyatida olib borgan serqirra faoliyati ayniqsa diqqatga sazovordir [6: 10]. 1986-yilning 27-dekabridan boshlab Islom Karimov Kompartiyaning Qashqadaryo viloyati qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimida faoliyat yurita boshlagan edi.

I.Karimovning dastlab, Qashqadaryoda keyinchalik butun O‘zbekiston Respublikasidagi dadil va samarali faoliyati mamlakatimizning mustaqillikka, erkinlikka yuz tutishining debochasi edi. Zero, deyarli bir yarim asr davomida erksiz O‘zbekiston xalqiga to‘ilgan yolg‘onlar tabiiy ravishda zavol topayotgan, boshga solingan ko‘rgiliklarning bosh sababi mustamlakachilik ekanligi anglab yetilayotgan edi. 1990-yilning aprel oyida Islom Karimov tashabbusi bilan “Paxta

ishi”dan jabr ko‘rgan minglab kishilarning “ishlari” ularning nomini oqlash, ularga noqonuniy qo‘yilgan ayblovlarni olib tashlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Prezidiumida ko‘rib chiqiladi. Bu ishlar qayta ko‘rilishi natijasida Moskvadan O‘zbekistonga yuborilgan Gdlyan va Ivanov rahbarligidagi tergovchilar guruhlar aybdor deb topgan 3500 dan ortiq inson nomini oqlashga erishiladi. Yuqorida Qashqadaryoda ushbu ish doirasida nohaq qamalgan, jabr chekkan ayollarning tiklangan qadri haqida misollar keltirdik. Ozmi-ko‘pmi, haqiqat qaror topdi. O‘zbek xalqi – o‘z manaviy hayotida ayollarga nisbatan asrlar oshib kelayotgan an‘analari, qadriyatlarini qaytdi. Navbatdagi vazifa esa, “paxta ishi” doirasida O‘zbekiston SSRda qatag‘onlar o‘tkazgan telman gdlyan va n.ivanovni qilmishlari uchun javobgarlikka tortishni talab qilib chiqqan bir guruh ziyolilar qatori bo‘lish [7: I-3], gdlyan va ivanovning tuxmatlari natijasida yuzaga kelgan adolatsiz tushunchalar [8: I-2]ni to‘liq inkor etadigan ilmiy, publisistik va badiiy manbalarni xalqimizga va butun dunyoga yoyish lozimdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Quroni Karim. Baqara surasi, 228-oyat.
2. O‘zbekiston davlat Milliy arxivi., O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi hujjatlar to‘plami., 1714-fond, 10-opis, 5334-ish., 42-bet.
3. Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati arxivi – Xoshim Soliyev va boshqalar jinoyat ishi bo‘yicha hujjatlar to‘plami - 183 fond, 3 ro‘yhat, 1-52 tom, 1-128 betlar.
4. <https://www.prilib.ru/item/372903>
5. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/05/11/1234567890-1414831>
6. “Qashqadaryo: istiqlol arafasida. 1986-1989 yillar” – Payon Ravshanov. –T.: “Ma’naviyat”, 2003. -10 bet.
7. <https://daryo.uz/2018/05/04/ozbekistonlik-ziyolilar-telman-gdlyanni-javobgarlikka-tortishni-talab-qildi>

8. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/shuhrat-barlos-gdlyan-jazolansa-tarixiy-adolat-tiklanadi>
9. “Qashqadaryo: istiqlol arafasida. 1986-1989 yillar”. – Poyon Ravshanov. – T.: “Ma’naviyat”, 2003. – B 172.
10. Viktor Ilyuxin., “Qabohat yohud..(“O‘zbeklar ishi” degan uydirma xususida)” kitobi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1993 yil. – 118 b.
11. “O‘zbekiston tarixidan materiallar” – R.Shamsutdinov, Sh.Karimov., bitiruvchi kurs va tarix ixtisosligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma., Andijon nashriyot-matbaa., 2004 y. – 582 b.
12. “Sovet hokimiyatining O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida qatog‘on siyosati va uning oqibatlari”. Dilobar Avliyoqulova. – T.: 2016-yil. – B. 138.

ТУРКИСТОНДА ЧОРВА МОЛЛАРИ КАСАЛЛИКЛАРИГА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАЛАРИ. (XIX аср охири – XX бошлари)

Ўрмонов У.А.

Фарғона давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси
ulugbekurmonov7@gmail.com

Аннотация: Мақолада XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда чорва хайвонлари орасида энг кўп тарқалган вабо, куйдирги, сап, яшуур, ўпка қурти каби юқумли касалликларининг оқибати ва мазкур касалликларнинг тез тарқалиши натижасида чорва молларининг нобуд бўлиши шунингдек Туркистонда ветеринария врачлик пунктларининг фаолияти, муассасаларда керакли тиббиёт қисмлари етишмаслиги, ветеринария ишлар юқори савияда олиб борилмаганлиги тўғрисида маълумотлар таҳлил қилинган.

Калит сўз ва иборалар: Чорвачилик, чорва бозорлари, савдо, экспорт, импорт, темир йўл, вабо, куйдирги, сап, яшуур, ўпка қурти, чорвадор, ветеринария, пичоқ.

Аннотация: В статье рассмотрены последствия таких инфекционных болезней, как холера, сибирская язва, желтая лихорадка, легочный червь, которые были наиболее распространены среди скота в Туркестане в конце 19-начале 20 века, и истребление скота как в результате быстрого распространения этих заболеваний, а также деятельности ветеринарных клиник в Туркестане, необходимой медицинской части в учреждениях, данных о ее отсутствии, анализе того, что ветеринарная работа не проводилась на высоком уровне.

Ключевые слова и фразы: Животноводство, скотоводческие рынки, торговля, экспорт, импорт, железная дорога, холера, сибирская язва, сок, яшуур, легочный червь, пастух, ветеринария, нож.

Annotation: The article discusses the consequences of such infectious diseases as cholera, anthrax, yellow fever, lung worm, which were most common among livestock in Turkestan in the late 19th - early 20th centuries, and the extermination of livestock as a result of